



SOVIET REPRESSION POLICY IN UZBEKISTAN AND ITS CONSEQUENCES

Bakhtiyorova Rukhshona Sodiqjon qizi

2nd year student, Faculty of History, Navoi State University,

"History" educational direction

bahtiyorovarukhshona76@gmail.com

Tel:99894-546-11-13

Scientific supervisor: **Djunayev Farkhod Abdukhamidovich**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17539776>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

KEYWORDS

1937-1938, repression,
personality cult, political
oppression, national
intellectuals.

ABSTRACT

The article analyzes the historical essence of the policy of repression in Uzbekistan in 1937-1938, its socio-political causes, and its negative impact on the fate of the national intelligentsia. The mass repressions that occurred as a result of Stalin's personality cult policy are revealed. The research uses archival sources and official statistical data, and the relevance of the topic is scientifically highlighted.

O'ZBEKISTONDA SOVETLARNING QATAG'ON SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

Baxtiyorova Ruxshona Sodiqjon qizi

Navoiy davlat universiteti tarix fakulteti "Tarix" ta'lim yo'nalishi

2-bosqich talabasi

bahtiyorovaruxshona76@gmail.com

Tel:99894-546-11-13

Ilmiy rahbar: **Djunayev Farxod Abduxamidovich**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17539776>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2025

Accepted: 30th October 2025

Online: 31st October 2025

KEYWORDS

1937-1938-yillar, qatag'on,
shaxsga sig'inish, siyosiy
tazyiq, milliy ziyolilar.

ABSTRACT

Maqolada 1937-1938 yillarda O'zbekistonda kechgan qatag'on siyosatining tarixiy mohiyati, ijtimoiy-siyosiy sabablari hamda milliy ziyolilar taqdiriga ko'rsatgan salbiy ta'siri tahlil qilingan. Stalinning shaxsga sig'inish siyosati oqibatida yuz bergan ommaviy repressiyalar ochib beriladi. Tadqiqotlarda arxiv manbalari va rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanilgan bo'lib, mavzuning dolzarbligi ilmiy asosda yoritiladi.

KIRISH

XX asr insoniyat tarixida eng murakkab va fojeali davrlardan biri sifatida yodda qolgan. Mustaqillik yillarida O'zbekiston tarixining ilgari o'rganilishi taqiqlangan sahifalarni qayta tahlil etish dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, 1937-1938 yillar sobiq Sovet Ittifoqi xalqlari, jumladan O'zbekiston xalqi hayotida chuqur iz qoldirgan qatag'on yillari bo'ldi. Bu davrda "xalq dushmani" tamg'asi bilan minglab begunoh insonlar, ilm-



fan, madaniyat va siyosat sohasidagi yurt fidoiylari nohaq ayblanib, qammoqqa olinib, o'lim jazosiga hukm qilindilar. Stalinning shaxsga sig'inish siyosati natijasida yuz bergan ommaviy repressiyalar natijasi o'zbek xalqining ma'naviy hayotiga, ilmiy fikr taraqqiyotiga va milliy o'zlikni anglash jarayoniga katta zarba berdi. O'z xalqining taraqqiyoti yo'lida jonini fido qilgan jadid ziyolilarining nomlari yillar davomida unutilgan, ularning ilmiy-ma'rifiy merosi xalq ongidan chetda qolgan.

1937-1938-yillardagi "Katta qirg'in" Sovet davlati tongida Lenin boshlab bergan, keyin Stalin izchil davom ettirgan qatag'on siyosatining avj nuqtasi kulminatsiyasidir. Tarixchilarning bir qismi Sovet davlatining bu g'ayriinsoniy siyosatini hokimiyat uchun kurash natijasi, ikkinchi qismi esa boshlanajak Ikkinchi jahon urushi arafasidagi tarixiy zarurat, deb hisoblaydilar. Bundan bo'lak fikr va qarashlar ham yo'q emas. Ammo mamlakat xalqiga qarshi qaratilgan bu qirg'inning kelib chiqish sabablari qanday bo'lmasin, u mohiyatiga ko'ra, Sovet davlatining o'z xalqiga nisbatan amalga oshirgan genotsididir¹.

ASOSIY QISM. SSSR Ichki ishlar xalq kommissari Nikolay Yejev tomonidan 1937-yil 30-iyuldagi "Sobiq quloqlar, jinoyatchilar va boshqa sovetlarga qarshi unsurlarni qatag'on qilish operatsiyasi to'g'risida"gi 00447-sonli mutloqa maxfiy operativ buyruqqa muvofiq 1937-yil 10-avgustdan 1938-yil 1-yanvargacha bo'lgan vaqtda O'zbekiston bo'yicha jami 10700 kishi qamoqqa olingan, ulardan 3613 kishi otuvga, 7087 kishi 8-10 yil qamoq jazosiga hukm qilingan. 1-toifa bo'yicha otuvga hukm qilinganlarning 1376 nafari sobiq quloqlar, 952 nafar jinoyatchilar va 1285 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan. 2-toifa bo'yicha hukm qilinganlarning 4548 nafari sobiq quloqlar, 727 nafari jinoyatchilar, 1812 nafari boshqa aksilinqilobiy unsurlar bo'lgan². Ushbu raqamlar o'sha yillarda O'zbekiston xalqi boshidan kechirgan fojiaoning naqadar dahshatli bo'lganini yaqqol ko'rsatadi. Qatag'on siyosati natijasida nafaqat sobiq boylar yoki siyosiy faol shaxslar, balki oddiy dehqonlar, o'qituvchilar, ziyolilar ham "xalq dushmani" degan ayblov bilan jazoga tortilgan. Eng achinarlisi shundaki, bu jarayon ko'pincha soxta ayblovlar, shaxsiy adovat va mahalliy rahbarlarning yuqoriga "sodiqlik" ko'rsatish istagi bilan amalga oshirilgan.

1937-1939-yillarning o'zidagina O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi (NKVD)ning ("troyka") "uchlik"lari tomonidan 41 ming nafardan ko'proq kishi qamaldi. Shulardan 37 ming nafardan ko'prog'i sudlandi, 6920 kishi otib tashlandi. Asossiz qamalib, jinoiy javobgarlikka tortilgan kishilar orasida partiya, sovet, xo'jalik xodimlari, harbiylar, ziyolilar ko'p edi³. Shu o'rinda bu "qirg'in operatsia"larini olib borgan, buyruqqa muvofiq tuzilgan ("troyka") "uchlik"larga to'xtalsak, SSSR NKVD troykalari yoki SSSR NKVD respublika, o'lka va viloyat uchliklari- SSSR NKVD respublika, o'lka va viloyat boshqarmalari huzuridagi ma'muriy (suddan tashqari) repressiya organlari. 1937-yil avgustdan 1938-yil noyabrgacha SSSRda "antisovet elementlarini" bostirish bo'yicha

¹ Eshpulatov M. Sh. Sovet hokimyatining O'zbekistonda yuritgan qatag'on siyosati//Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies.-2024.-P.263-265

² O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 1937-1938-yillardagi "Katta Qirg'in" tarixining muhim sanalari "Fan" nashriyoti. Toshkent-2013.

³ 1937-1938-yillardagi "Katta qirg'in" tarixining muhim sanalari (malumotnoma).Fan nashriyoti. Toshkent-2013.



operatsiya o'tkazish maqsadida tashkil etilgan. Ular uch kishidan -boshliq, viloyat qo'mitasi kotibi va prokurordan iborat bo'lib, nomlanishi shundan kelib chiqqan⁴.

Moskvalik jurnalistlarning guvohlik berishicha 1937-yil 2-iyulda Stalin 863/sh raqamli "aksilsho'roviy unsurlar to'g'risidagi direktiva"ni Kaganovichga aytib turgan va u "dohiy" og'zidan chiqqan quyidagi so'zlarni yozgan: "Shu narsa ayon bo'ldiki, bir paytlar turli viloyatlardan Shimoldagi va Sibirdagi rayonlarga yuborilgan, surgun muddati o'tganidan keyin esa, o'z viloyatlariga qaytgan sobiq quloqlar va jinoyatchilarning katta qismi kolxoz va sovxozlarda bo'lganidek, transportda va sanoatning ayrim sohalarida ham turli-tuman aksil sho'roviy va diversion jinoyatparvarning bosh sababchilari bo'lmoqdalar. VKP(b) MK viloyat va o'lka tashkilotlarning barcha sekretarlariga hamda NKVDning viloyat, o'lka va respublikalardagi barcha vakillariga o'z yurtiga qaytgan quloqlar va jinoyatchilarning eng g'arazgo'ylarini uchliklar orqali ma'muriy yo'l bilan darhol hibsga olib otib tashlanishi uchun barchasini hisobga olishni, qolganlarini ashaddiy bo'lmagan ammo g'arazgo'y unsurlarni esa ro'yxatga olish va NKVDning ko'rsatmasi asosida rayonlarga yuborishni taklif qiladi. VKP(b) MK besh kunlik muhlatda uchliklar tarkibini, shuningdek, otishga mo'ljlanlangallar sonini, shu bilan birga surgun qilinuvchilar sonini MKga taqdim etishni taklif qildi.

"Shahidlar xotirasi" jamg'armasi ma'lumotlariga ko'ra, birgina 1937-yilning sentyabr oyida hozirgi O'zbekiston hududida 10700 kishi hibsga olinib, sudlangan. Ulardan 3613 nafari o'lim jazosiga hukm qilingan, 7087 nafari esa 8 yildan 10 yilgacha bo'lgan lagerlarda qamoqda saqlangan. Shu yilning 13-noyabridan-28-noyabrgacha bo'lgan davrda 1611 kishi sudlangan bo'lsa, 1937-yil dekabr oyida mahkumlar soni 3610 kishini tashkil etgan. Qurbonlar orasida Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon kabi taniqli arboblardan, olim va adiblar bor edi⁵.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qatag'on qilinganlarning ko'pchiligi huquqiy jihatdan oqlandi. Ularning porloq nomlari tiklandi. Qatag'on qurbonlarini o'rganish, ularning nomlarini abadiylashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-mayda e'lon qilgan farmoyishi⁶, 1999-yil 22-iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Vatan va xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoiylar xotirasini abadiylashtirish to'g'risida" qarori⁷ qabul qilingan. "Shahidlar xotirasi" xayriya jamg'armasi tuzildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 1-mayda qabul qilingan "Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida" farmoni⁸ asosida 2002-yil 31-avgust kuni Toshkent shahrining Yunusobod tumani, Bo'zsuv arig'i yonida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etildi.

XULOSA. 1937-1938-yillarda O'zbekistonda ham, butun sobiq SSSR hududida ham amalga oshirilgan qatag'on siyosati xalqimiz tarixidagi eng og'ir va fojiali davrlardan biridir. Bu davrda minglab begunoh ziyolilar, jadidlar, siyosiy arboblardan, ilm-fan va

⁴ To'lanboyeva D. Sobiq tuzumning qatag'onlik siyosati: tarix va taxlil // "Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. B-126

⁵ <https://uzbekiston.travel.uz>.

⁶ https://mustaqillik.uz/oz/pages/shahidlar_maydoni

⁷ <https://www.facebook.com/groups/1383436825420835/posts/1703977166700131/>

⁸ <https://lex.uz/uz/docs/-177255>



madaniyat namoyondalari “xalq dushmani” tamg’asi bilan oqlanmas ayblar asosida qamoqqa olinib, otib tashlangan yoki uzoq yillik surgunlarga yuborilgan. Natijada, millatning ma’naviy tayanchi bo’lgan ziyolilar qatl etildi, xalqning tarixiy xotirasi va milliy ongiga katta zarba berildi. Bugungi kunda ushbu qatag’on siyosatini chuqur o’rganish, begunoh qurbonlarning nomini oqlash va ularning merosini tiklash milliy burchimizdir.

References:

1. Eshpulatov M.Sh. Sovet hokimiyatining O’zbekistonda yuritgan qatag’on siyosati//Proceedings of International Conference of Modern Science and Scientific Studies.-2024.-P263-265
2. O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.1937-1938-yillardagi “Katta Qirg’in” tarixining muhim sanalari “Fan”nashriyoti.Toshkent-2013.
3. 1937-1938-yillardagi“Katta qirg’in”tarixining muhim sanalari(malumotnoma).Fan nashriyoti.Toshkent-2013
4. To’lanboyeva D.Sobiq tuzuming qatag’onlik siyosati:tarix va taxlil//“Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.B-126.
5. <https://uzbekiston.travel.uz>
6. https://mustaqillik.uz/oz/pages/shahidlar_maydoni
7. <https://www.facebook.com/groups/1383436825420835/posts/1703977166700131/>
8. <https://lex.uz/uz/docs/-177255>